

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA  
DIZAYN INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD. 38/09.07.2020. San. 119.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI  
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

**ARUSHANOVA MANUSHAK SERGEYEVNA**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI ILMIY-MA'RIFIY YODGORLIK  
MAJMUASINI SHAKLLANISHI VA MUZEYLASHTIRISH JARAYONI**

**17.00.08 – San'at nazariyasi va tarixi**

**SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата диссертация доктора философии (PhD)**  
**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Arushanova Manushak Sergeevna**

Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasini shakllanishi va muzeylashtirish jarayoni .....5

**Арушанова Манушак Сергеевна**

Процесс формирования и музеефикации научно-просветительского мемориального комплекса имени Ислама Каримова.....24

**Arushanova Manushak Sergeevna**

The process of formation and museification of the Islam Karimov Scientific and Educational Memorial Complex.....50

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works .....54

**KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA  
DIZAYN INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD. 38/09.07.2020. San. 119.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI  
MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI**

**ARUSHANOVA MANUSHAK SERGEYEVNA**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI ILMIY-MA'RIFIY YODGORLIK  
MAJMUASINI SHAKLLANISHI VA MUZEYLASHTIRISH JARAYONI**

**17.00.08 – San'at nazariyasi va tarixi**

**SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/San162 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Badiiy akademiyasi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida ([www.mrdi.uz](http://www.mrdi.uz)) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portali ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Qoraboyev Usmon Hosilovich**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Qurbonova Dilafro‘z Abdirashidovna**  
tarix fanlari doktori, dotsent

**Abdullayev Masharib Sayadamatovich**  
san’atshunoslik fanlari falsafa doktori (PhD),  
katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Dissertatsiya himoyasi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD. 38/09.07.2020. San.119.01-raqamli Ilmiy kengashning 2025- yil “\_\_\_” \_\_\_soat \_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil:100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mironshoh ko‘chasi, 123-uy. Tel.: (+99871) 255-98-39, faks: (+99871) 255-18-33, e- mail:info@mrdi.uz).

Dissertatsiya bilan Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti axborot- resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil:100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Mironshoh ko‘chasi, 123-uy. Tel.: (+99871) 255-98-39, faks: (+99871) 255-18-33, e-mail:info@mrdi.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.  
(2025-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi № \_\_\_ - raqamli reestr bayonnomasi).

**K.B.Akilova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, san’atshunoslik fanlari doktori, professor

**K.S.Nishanova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, san’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**A.A.Ziyayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, arxitektura fanlari doktori, katta ilmiy xodim

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon san'atshunoslik va muzeyshunoslik ilmida tarixiy shaxs va uning faoliyatini har tomonlama o'rganish muhim o'rin tutmoqda. Tarixiy, ijtimoiy va madaniy hodisalarning representativ ifodasi vositasi sifatida eks-prezidentlar muzeylari kishida fuqarolik burchi, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantiruvchi kuchli vosita sifatida ahamiyati xorij analoglarida isbotlangan. Masalan, yuqori darajada rivojlangan Yevropa mamlakatlari, AQSh, Yaponiya, BAA, Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlarida jamiyat hayotida ulkan ishlarni amalga oshirgan shaxslar, xususan, prezidentlarning hayoti va faoliyatiga oid o'nlab muzeylar mavjud. Muhimi, mazkur muzeylar nafaqat birinchi shaxs hayotini, balki butun bir xalqning turmushini, muhim nazariy va amaliy muammolarini chuqurroq o'rganishda zamonaviy muzeyshunoslik sohasida muhim hisoblanadi.

Jahondagi globalizatsiya jarayoni tobora o'sib borishi, hozirgi paytda turli xalqlarning madaniy merosi, tarixiy shaxs xotirasini tiklash, uning faoliyatini har tomonlama o'rganish va kelajak avlodga yetkazish muammosi hech qachon hozirgidek jamiyat uchun dolzarb ahamiyat kasb etmagan. Xususan, jahonda davlat rahbarlariga bag'ishlangan muzeylar, turli tarixiy davrlardan to bugungi kungacha avlodlarning mafkuraviy taraqqiyotiga zamin, tarixiy xotirani tiklash va rivojlantirishda, ilm-fandagi yutuqlarini qamrab olgan ilmiy tadqiqotlarga manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston san'atshunosligida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda zamonaviy tasviriy san'atning rivojlanishiga ta'sir etayotgan muhim omillar qatorida buyuk tarixiy siymolarning jamiyatda tutgan o'rni, ularga mos bo'lgan majmua va muzeylar yaratish bo'yicha muzeyshunoslik va san'atshunoslikda yechimini kutayotgan ko'plab muhokamalarga sabab bo'layotgan masalalarni ko'rib chiqishga ehtiyoj bor. Masalan, 1975-yil 1-mart kuni Usmon Yusupov uy muzeyini tantanali ochilish marosimi bo'lganini keltirish mumkin. Bundan tashqari, 1992-yil 6-noyabrda atoqli davlat arbobi, yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 75-yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan yodgorlik muzeyi sifatida tashkil topgan. 2017-yil 27-martda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini keng nishonlash to'g'risidagi qaroriga ko'ra, muzey qaytadan ta'mirlanib, zamonaviy qiyofa kasb etdi. Zero, bugungi kunda muzeylar tizimini takomillashtirish, xalqimizning boy tarixini asrash, o'rganish, dunyoga olib chiqish, targ'ib qilish va Vatanga sadoqat tuyg'ularini kuchaytirish muhimdir. Shu bois, Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasini shakllanishi, muzeylashtirish jarayonini o'rganish va eksponatlarning badiiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda asosan "Buyuk davlat va siyosat arbobi, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov siymosi tasvirlangan haykalni yaratish bo'yicha xalqaro ijodiy tanlovni tashkil etish to'g'risida"gi qarori, 2017-yil 25-apreldagi PQ-2929-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi O'zbekiston Respublikasining

Birinchi Prezidenti Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" qarori, 2017-yil 25-yanvardagi PQ-2744-son "O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug'anyevich Karimovning xotirasini abadiylashtirish to'g'risida"gi qarori hamda 2017-yil 16-fevraldagi PQ-2785-sonli "Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasining ilmiy-tarixiy konsepsiyasi va ekspozitsiya loyihasini tayyorlash to'g'risida"gi qarorlari belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dissertatsiya mavzusiga oid adabiyotlar hamda manbalar maqsad va vazifasidan kelib chiqib, uchta guruhga bo'lib o'rganildi.

Birinchi guruhni muzeyshunoslik sohasi bo'yicha olib borilgan jahon va mahalliy ilmiy tadqiqotlar, maqolalar tashkil etadi.

L.E.Starostova, O.V.Aronson, T.A.Kruglova: "Музей как медиа. Дискуссии в Музее Бориса Ельцина<sup>1</sup>" kitobida kino, fotografiya, multimedia san'ati va muzey dizayni sohasidagi mutaxassislarning Boris Yelsin muzeyiga qilgan ekskursiyalari matnlari kiritilgan. Kitob keng kitobxonlar, tarixchilar, madaniyatshunoslar, shuningdek, muzey ishi sohasi mutaxassislarida qiziqish uyg'otishi bilan ahamiyat kasb etadi.

A.V.Aysagaliyevning "Назарбаев-центр: музей первого Президента Республики Казахстан"<sup>2</sup> maqolasida, Qozog'iston Birinchi Prezidenti Nazarboyev muzeyining tarixi va asosiy vazifalari o'rganilganligi bilan ahamiyatlidir.

J.X.Ismailova, K.S.Nishanova M.S.Muxamedova<sup>3</sup> hamda muzey sohasida faoliyat yuritayotgan bir qator mutaxassislar muzey va jamiyat o'rtasidagi muammolarga doir izlanishlar olib borishgan<sup>4</sup>. D.T.Kuryazovanning ilmiy tadqiqot

<sup>1</sup> Старостова Е., Аронсон О.В., Круглова Т.А. «Музей как медиа. Дискуссии в Музее Бориса Ельцина» // Кабинетный ученый // 2022.

<sup>2</sup> Айсғалиев А.В. «Назарбаев-центр: музей первого Президента Республики Казахстан» // Издательский Дом Панорама наука и практика. Музей журнал. - 2022. - №7.

<sup>3</sup> Ismailova J.H., Muxamedova M.S. Zamonaviy jahon muzeyshunosligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Munis design group, 2013. – 312 b.; Ismailova J.H., Nishanova K.S., Muxamedova M.S. Muzey va jamiyat. Oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. – Toshkent: Chinor ENK. - 2015. – 174 b.; Muxamedova M.S. Muzeyshunoslik sohasini rivojlantirishda milliy va xalqaro tashkilotlar faoliyatining o'рни (XX–XXI asrlar). – Toshkent, Yosh kuch press matbuoti, 2017. – 297 b.

<sup>4</sup> Дресвянская Г.Я. Музей ва жамият // Мозийдан садо. - 2000. - № 1-2.; Ismailova J. Muzey – tarix ko'zгusi // Мозийдан садо. – Toshkent, 2003. – № 2 (18). – В. 17-78.; Содиқова Н. Ўрта Осиёда музейларнинг шаклланиши // Мозийдан садо. - 1999. - № 1-2.; Inoyatov Q. Vatanga muhabbat shu yerda tug'iladi // Мозийдан садо. – Toshkent, 1999. – № 3. – В. 4-7.; Qayumov R. Samarqand davlat muzey qo'riqxonasining xalqaro aloqalari // Мозийдан садо. – Toshkent, 2005. – № 4. – В. 11-12.; Левтеева Л. Юбилейные выставки в музее истории Узбекистана // Мозийдан садо. – Ташкент, 2006. – № 2 (30). – С. 34-37.; Ртвеладзе Э. Из истории Великого Шёлкового пути // Мозийдан садо. – Ташкент, 1999. – № 3. – С. 8-13.; Fatxullayev R. Muzey ishida zamonaviy axborot texnologiyasi // Мозийдан садо. – Toshkent, 2002. – № 2 (14). – В. 8-11.; Habibullayev N. Temuriylar tarixi davlat muzei // Мозийдан садо. – Toshkent, 1999. – № 4 (32). – В. 5-8.; Shu muallif. O'zbek muzeylarining istiqboli // Мозийдан

ishida O‘zbekistonda tarix ixtisosligidagi muzeylarning tashkil etilishi va mustaqillikkacha bo‘lgan rivojlanish davri bosqichma-bosqich o‘rganilgan<sup>5</sup>.

Sh.A.Miraliyeva<sup>6</sup>ning ilmiy tadqiqotlarida virtual muzeylar yaratishning jahon tajribasi tahlil qilingan hamda O‘zbekistonda virtual muzeylar yaratishning rivojlanish istiqbollari tadqiq qilingan.

G.R.Orifjonova<sup>7</sup>ning ilmiy izlanishlari ham innovatsion loyihalarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. Tadqiqotda O‘zbekiston va jahon muzeylaridagi O‘zbekistonga oid etnografik kolleksiyalar o‘rganilgan. Bundan tashqari butun jahondagi etnografik ixtisoslikka ega muzeylar konsepsiyasi tahlil qilinib, O‘zbekiston uchun dunyoda analogi mavjud bo‘lmagan Etnografiya muzeyi konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

F.X.Mirhakimova<sup>8</sup>ning “Usmon Yusupov Uy-muzeyi tarixi” maqolasida Usmon Yusupov uy-muzeyinig tashkil etilishi tarixi va eksponatlari haqida batafsil yoritilgan.

Ikkinchi guruhda tasviriy san’atga oid ilmiy adabiyotlar va maqolalar tadqiq etildi.

Akademik A.Hakimov<sup>9</sup>ning “O‘zbekiston san’ati tarixi” kitobi Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma’rifiy yodgorlik majmuasining tarkibiga kiruvchi “Butun olamni jo etgan yurak” nomli ko‘rgazmasidan joy olgan eksponatlarni ilmiy tahlil qilishda muhim o‘rin tutdi.

Akademik K.Akilovanning “O‘zbekiston haykaltaroshligi 1991-2006”<sup>10</sup> katalogi va Oqsaroy muzeyi bo‘yicha tayyorlagan audiogid matnidan dissertatsiyaga tegishli bo‘lgan ko‘plab ma’lumotlardan o‘rinli foydalanilgan.

N.Ahmedova<sup>11</sup>ning tadqiqotlarida O‘zbekiston zamonaviy tasviriy san’atini o‘rganish borasidagi yangi nazariy yondashuvlar, ularning zamonaviy jarayonlar bilan bog‘liqligi ochib berilgan va milliy tasviriy san’at masalalarini o‘rganish borasida fanlararo yondashuvlarga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, D.Po‘latov va G‘.Mambetkadirov<sup>12</sup>lar tadqiqotlarida O‘zbekiston haykaltaroshligining yangi ijodiy tamoyil va yondashuvlari, kasbiy-badiiy masalalari kabi rivojlanish omillarining asosiy tamoyillari ko‘rib chiqilgan. Biz ilgari surayotgan tadqiqotda ham milliy tasviriy san’atda yangi ijodiy yondashuvlarga boyligi ilmiy jihatdan ko‘rsatib o‘tilgan. Bunga Islom Karimov timsolining nafaqat rasmiy shaxs ekani, balki, uning oddiy insoniy qiyofasi jozibador bo‘yoqlarda aks ettirilgani ochib

---

sado. – Toshkent, 1999. – № 1-2. – B. 12-13.; Yormuhammedov O‘. Najotbaxsh qaror // Guliston. – Toshkent, 1995. – № 2. – B. 28-29.; Vohidov Sh., Yoqubov J. Kichik maskanlarning ulkan vazifalari // Moziydan sado, Toshkent, 2000. – № 2. – B. 18-20.

<sup>5</sup> Kuryazova D.T. Muzey ishi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 180 b.

<sup>6</sup> Miraliyeva Sh.A. Virtual muzeylar yaratishning jahon tajribasi va O‘zbekistonda ularning rivojlanish istiqbollari. Tarix fan. falsafa dok. avtr. - Toshkent, 2019. - 54 b.

<sup>7</sup> Orifjonova G.R. XIX-XX asr boshlariga oid O‘zbekiston etnomadaniy merosini saqlash, tadqiq etish va namoyish etishning tarixiy-madaniy jihatlari. Tarix fan.fal.dok.diss. -Toshkent, 2021. - 167 b.

<sup>8</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/usmon-yusupov-uy-muzeyi-tarixi-3>

<sup>9</sup> Hakimov A. “O‘zbekiston san’ati tarixi” Toshkent: “Info Capital Group”. – 2018. - B. 375-381.

<sup>10</sup> Akilova K. O‘zbekiston haykaltaroshligi 1991-2006 katalogi. Media land – Tashkent, 2006. – B. 5- 6.

<sup>11</sup> Ahmedova N. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог. – Ташкент, 2004.

<sup>12</sup> Po‘latov D. O‘zbekiston zamonaviy haykaltaroshligining rivojlanish tamoyillari. Dissertatsiya. – Toshkent, 2008.; Mambetkadirov G‘. Qoraqalpog‘iston haykaltaroshligining shakllanishi va rivoji (XXasr 60-yillari XXI asr boshlari). San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2018.

berilgan. Muzei to'plamida mustaqillik davrida yaratilgan eksponatlar mavjud. D.Umarova<sup>13</sup>ning ilmiy ishida mustaqillik davri O'zbekiston rangtasvirining asosiy tendensiyalari o'rganilganligi uchun mazkur dissertatsiyadan unumli foydalanildi.

N.Kultasheva<sup>14</sup>ning "O'zbekiston muzeylarida milliy rangtasvir kolleksiyalarining shakllanishi" mavzusidagi ilmiy ishi, rangtasvir kolleksiyalarini muzeylashtirish masalalariga oid ilk tadqiqotlardan biri sifatida xizmat qiladi.

Uchinchi guruhda Islom Karimov hayoti va faoliyatiga oid adabiyotlar o'rganildi.

L.Bo'rixon<sup>15</sup>ning "Olov tutgan odam" asarida Islom Karimov hayoti va faoliyatining muhim bir davri aks etgan bo'lib, tadqiqot ishini ochib berishda munosib o'rin tutdi.

N.Jo'rayev<sup>16</sup>ning "Tarixiy davr kashfiyoti" kitobida I.A.Karimovni o'z davrining tarixiy kashfiyoti sifatida namoyon etgani, Islom Karimovni tasviriy san'at asarlaridagi timsolini ochib berishda ahamiyatlidir.

A.Imomov<sup>17</sup> "Ruhiyat qudrati" kitobida Islom Karimov siyrati psixologik chizgilar kesimida o'rganilgan.

M.Muzaffarova, D.Boymirzayeva, G.Buxarova, K.G'aybullayeva, P.Kadirbayeva, D.Tosheva, I.Xudoyberganova hammuallifligidagi "O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov bibliografiyasi"<sup>18</sup> nashrida Islom Karimov asarlarining nashrlari, alohida mavzuli to'plamlari, risolalari, Birinchi Prezident hayoti va faoliyati haqidagi asarlar mavzuni o'rganishda alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Mustaqil ilmiy tadqiqot sifatida, turkiyalik yosh tadqiqotchi Ismoil Polatning "O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov: Milliy mafkuraning shakllanishi"<sup>19</sup> asarida I. Karimovning davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan milliy mafkurani shakllantirish jarayonidagi rolini ochib beradi. Tadqiqotda milliy mafkura va milliy o'zlikni anglash o'rtasidagi bog'liqlik "tarixshunoslik", "til", "din", "ramz va miflar" kabi parametrlar orqali o'rganiladi.

Yuqoridagi adabiyotlarning salmog'iga qaramay, zamonaviy tasviriy san'atda atoqli shaxslar, ular bilan bog'liq muzeylar, yodgorlik majmualari san'atshunoslik nuqtayi nazaridan alohida o'rganilmagan. Jumladan, Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasini muzeylashtirish jarayoni va davlat arbobi siymosining zamonaviy tasviriy san'at asarlaridagi obrazi bo'yicha ham tadqiqot olib borilmagan.

---

<sup>13</sup> Umarova D. Mustaqillik davri O'zbekiston rangtasvirining asosiy tendensiyalari. San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019.

<sup>14</sup> Kultasheva N. O'zbekiston muzeylarida milliy rangtasvir kolleksiyalarining shakllanishi. San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020.

<sup>15</sup> Bo'rixon L. Olov tutgan odam // Universitet nashriyoti, Toshkent, 2018. - 384 b.

<sup>16</sup> Jo'rayev N. Tarixiy davr kashfiyoti // Universitet nashriyoti, Toshkent, 2023. - 384 b.

<sup>17</sup> Imomov A. Ruhiyat qudrati. Yodnoma // Kamalak nashriyoti, Toshkent, 2019. -168 b.

<sup>18</sup> Muzaffarova M., Boymirzayeva D., Buxarova G., G'aybullayeva K., Kadirbayeva P., Tosheva D., Xudoyberganova I. // "O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov bibliografiyasi", Toshkent Zamin Nashr, 2022. - 314 b.

<sup>19</sup> Dr. Ismail Polat "O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov Milliy ideologiyasining shakllanishi" Ankara Avgustos 2024. - 3 b.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan o'rin olgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasini shakllanishi va muzeylashtirish jarayonining asosiy omillarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasining shakllanish xususiyatlari va Oqsaroy qarorgohini muzeylashtirish jarayonini ochib berish;

“Butun olamni jo etgan yurak” ko'rgazmasi va undagi san'at asarlari kolleksiyasining shakllanishiga doir masalalarni san'atshunoslik fani kesimida tadqiq etish;

Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasining badiiy va ijtimoiy jarayonlardagi rolini aniqlash;

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti tomonidan amalga oshirilgan islohotlarning mamlakat madaniy hayoti rivojida tutgan o'rnini va I.Karimov xotirasini abadiylashtirilishiga qaratilgan tadbirlar ahamiyatini asoslash;

O'zbekiston tasviriy san'atida Islom Karimov siymosining ifoda usullarini va uning badiiy ta'sirchanlik omillarini ochib berish;

Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasining shakllanishini tadqiq etish orqali uning muzeylashtirish jarayonini xalqaro andozalarga muvofiq takomillashtirish, xizmatlarning interaktivligini oshirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasini shakllanishi va muzeylashtirish jarayoni belgilandi.

**Tadqiqotning predmetini** Oqsaroy muzey ekspozitsiyasi va Islom Karimov siymosiga bag'ishlangan tasviriy san'at asarlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada qiyosiy-tahliliy, tizimli, tasnifiy, tarixiy-tipologik, san'atshunoslik, madaniyatshunoslik va muzeyshunoslikka oid fanlararo yondashuv usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

davlat boshqaruviga mo'ljallangan “Oq saroy” majmuasini mustaqillik yillarida mamlakatimizda olib borilgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy jarayonlarni aks ettiruvchi unikal bino sifatida muzeylashtirilish tajribasi MDH davlatlari orasida yagonaligi asoslangan;

ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasining yaratilish maqsad va vazifalariga ko'ra, birinchi bo'lim “Ishonch yorliqlarini topshirish zali”, “Uchrashuvlar zali”, “Muloqotlar zali”, “Xalqaro munosabatlar zali”, “Mukofotlar zali”, ikkinchi bo'lim “Tarjimai hol”, “Ma'naviy yuksalish”, “Kuchli ijtimoiy siyosat”, “Bozor iqtisodiyoti”, “Birinchi Prezidentning mukofotlari zali” hamda uchinchi bo'lim “Yodi hamisha yodda” nomli ekspozitsiyalarning loyiha konsepsiyasi mavzuli va xronologik tartibda ishlab chiqilganligi dalillangan;

O‘zbekiston muzey ishi tarixida davlat boshqaruvchilari xotirasini abadiylashtirish uchun birinchi marta 1975-yilda Usmon Yusupov uy-muzeyi, 1992-yilda Sharof Rashidov memorial muzeyi, 2017-yilda Sharof Rashidov uy-muzeyini ochilishi natijasida memorial muzeylarni tashkil etishning metodikasi yaratilganligi dalillangan;

muzeiy fondini shakllantirishda dastlabki yillarda Islom Karimov xotirasini tasviriy san’at orqali abadiylashtirish maqsadida e’lon qilingan tanlovlardan yig‘ilgan ijodiy asarlar, ikkinchi bosqichda shaxsiy va kino-fono, foto arxiv materiallari, uchinchi bosqichda ilmiy-amaliy konferensiyalar, ko‘rgazmalar, loyihalar asosida to‘plangan ashyolar tashkil etilganligi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati quyidagilardan iborat:** “Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma’rifiy yodgorlik majmuasini shakllanishi va muzeylashtirish jarayoni” deb nomlangan monografiya orqali zamonaviy o‘zbek san’atshunosligi va muzeyshunosligiga oid qo‘llanma sifatida tasviriy san’at asarlarida birinchi shaxs siymosi, shuningdek, Oqsaroy qarorgohini muzeylashtirish jarayonini ilmiy tomondan o‘rganishda foydalanish mumkin.

San’atshunoslik masalalari bo‘yicha ilgari surilgan g‘oyalar “Muzeyshunoslik tarixi”, “Zamonaviy tasviriy san’at” kabi mutaxassislik fanlari bo‘yicha ma’ruza, seminar va amaliy mashg‘ulotlarni faollashtirishda qo‘llanilgan;

Ilmiy ishning ahamiyati avvallari murojaat qilinmagan tasviriy san’at asarlarida Islom Karimov siymosi va Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma’rifiy yodgorlik majmuasini shakllanishi va muzeylashtirish jarayoni haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi bilan qimmatlidir.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** dissertatsiyada muammoning aniq qo‘yilgani, chiqarilgan xulosalarni zamonaviy san’atshunoslik kesimida tahlil etilgani, qiyosiy-tahliliy, tarixiy-madaniy va biografik metodlarda nazariy yondashuvlarning qo‘llanilgani, O‘zbekistonda san’atshunoslikka oid fundamental asarlar, arxiv material kabi birlamchi manbalarga asoslangan natijalar, respublika hamda xalqaro miqyosdagi ilmiy anjumanlar, konferensiyalar, milliy va xorijiy jurnallarda chop etilib, aprotatsiyadan o‘tganligi, Yangi O‘zbekiston sharoitida zamonaviy muzeyshunoslikning shakllanishiga oid manbalarga tayanib, ilmiy-amaliy xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati san’atshunoslik va muzeyshunoslik sohalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, tadqiqotchilar, umuman, san’atshunoslar va muzeyshunoslar uchun kerakli manba sifatida ahamiyatli ekani bilan birga, zamonaviy tasviriy san’atga kompleks yondashuv va ilg‘or nazariy metodlarning qo‘llangan mavjud ijodiy izlanishlarni keng doirada o‘rganish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy muzeyshunoslik rivojlanishining asosiy bosqichlariga aloqador, kam o‘rganilgan va noma’lum bo‘lgan manbalarni ilmiy tahlil etish orqali kerakli manba sifatida xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan ma’lumot va xulosalardan O‘zbekistonda zamonaviy rassom hamda haykaltaroshlar ijodini o‘rganish va san’atshunoslik, muzeyshunoslik hamda madaniyatshunoslik fanlaridan

tayyorlanadigan darslik va o‘quv qo‘llanmalar uchun qo‘shimcha manba bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Taqdiqot natijalarining joriy qilinishi.** Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma‘rifiy yodgorlik majmuasini shakllanishi va muzeylashtirish jarayonini tadqiq etish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy-ma‘rifiy jarayonlarni o‘zida aks ettirgan “Oq saroy” majmuasining davlat boshqaruvi uchun mo‘ljallangan inshootdan ilmiy-ma‘rifiy yodgorlik majmuasiga aylantirilishi – MDH davlatlari miqyosida yagonaligi bilan ajralib turadigan muzeylashtirish tajribasi ekanligi asoslangan. Natijada, Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma‘rifiy yodgorlik majmuasining shakllanishi va muzeylashtirish bosqichlari aniqlanib, bu yo‘nalishda asosiy konseptual va tashkiliy yo‘nalishlar belgilab olingan;

“Ishonch yorliqlarini topshirish zali”, “Uchrashuvlar zali”, “Muloqotlar zali”, “Xalqaro munosabatlar zali”, “Mukofotlar zali”, “Tarjimai hol”, “Ma‘naviy yuksalish”, “Kuchli ijtimoiy siyosat”, “Bozor iqtisodiyoti”, “Birinchi Prezidentning mukofotlari zali”, “Yodi hamisha yodda” nomli ekspozitsiyalarning loyiha konsepsiyasidan olingan natijalardan O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti huzuridagi O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma‘rifiy yodgorlik majmuasining “Ko‘rgazmalar zali” va “Islom Karimov muzeyi” hujjatlar fondini takomillashtirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti huzuridagi O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma‘rifiy yodgorlik majmuasining 2022-yil 16-dekabrda №1/289-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada majmua ko‘rgazma zali va fondi yodgorlikning yaratilish tarixi, rivojlanish jarayonlariga oid qiziqarli ma‘lumotlar bilan boyitilgan;

O‘zbekiston muzey ishi tarixida davlat boshqaruvchilari xotirasini abadiylashtirish uchun birinchi marta 1975-yilda Usmon Yusupov uy-muzeyi, 1992-yilda Sharof Rashidov memorial muzeyi, 2017-yilda Sharof Rashidov uy-muzeyini ochilishi natijasida memorial muzeylarni tashkil etishning metodikasi takomillashganligiga oid natijalardan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ma‘naviy tadqiqotlar instituti targ‘ibot tadbirlari ssenariysini ishlab chiqishda foydalanilgan (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ma‘naviy tadqiqotlar institutining 2022-yil 21-dekabrda №394-sonli dalolatnomasi). Natijada targ‘ibot tadbirlari ssenariysi majmua ekspozitsiyasining takomillashuv jarayonlariga oid ma‘lumotlar kengaytirilishiga xizmat qilgan;

muзей fondini shakllantirishda dastlabki yillarda Islom Karimov xotirasini tasviriy san‘at orqali abadiylashtirish maqsadida e‘lon qilingan tanlovlardan yig‘ilgan ijodiy asarlar, ikkinchi bosqichda shaxsiy va kino-fono, foto arxiv materiallari, uchinchi bosqichda ilmiy-amaliy konferensiyalar, ko‘rgazmalar, loyihalar asosida to‘plangan ashyolar bo‘yicha olingan natijalardan Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining targ‘ibot tadbirlari loyihalarini yaratishda foydalanilgan (Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2022-yil

21-dekabrda №02/570-son dalolatnomasi). Natijada targ'ibot tadbirlari loyihalari majmua ekspozitsiyasiga oid badiiy jarayonlarni qo'shimcha manbalar bilan to'ldirilishiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari respublika miqyosida o'tkazilgan 5 ta ilmiy-amaliy konferensiya va 5 ta xalqaro ilmiy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy maqola, jumladan Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, xorijiy jurnallarda 4 ta, boshqa ilmiy to'plamlarda 10 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlari tezislari chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 betdan iborat. Ilova qilingan illyustrativ albom 30 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari belgilangan, Respublika fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot predmeti va obyektini aniqlangan, muammoning o'rganilganlik darajasi aks ettirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ochib berilgan, natijalarning amaliyotga tatbiq etilganligi bayon etilgan, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasini shakllanish jarayoni”** deb nomlangan bobi ikki bo'limdan iborat. Mazkur bobning **“Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasining vazifalari”** nomli birinchi bo'limida Islom Karimovning zamonaviy O'zbekiston asoschisi va me'mori, O'zbekistonning mustaqillik yillarida erishgan yutuqlari bunyodkori, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi nufuzini mustahkamlagan buyuk shaxs sifatidagi hayoti va faoliyati, shuningdek, uning axloqiy va insoniy fazilatlarini o'rganilgan. Shuningdek, mamlakatimizning mustaqil davlat sifatida shakllanishi va rivojlanishini namoyish qilish, aholi, avvalo yoshlar va xorijlik mehmonlarni O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'li bilan tanishtirish, yurtimiz yutuqlarini targ'ib qilish hamda yosh avlodni tarixiy va siyosiy madaniyat ruhida tarbiyalash masalalari keng tahlil etilgan. Majmua xodimlarining Islom Karimov hayoti va faoliyati bilan bog'liq kitob, katalog, buklet va boshqa materiallarni nashr qilish va tarqatish, kolleksiya va buyumlarni saqlash, hisobini yuritish va ko'rgazmalarga qo'yish, muzey ashyolari va to'plamlari ma'lumotlar bazasini shakllantirish, yuritish va yangilab borish bilan shug'ullanishlari borasida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga

bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida: "Birinci Prezidentimiz o'zining serqirra siyosiy faoliyati, oliyjanob insoniy fazilatlari bilan Vatanimizning ko'p asrlilik tarixida o'chmas va yorqin iz qoldirdi. Buyuk Yurtboshimiz nafaqat O'zbekistonda, balki butun jahon miqyosida katta hurmat va obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan ulkan shaxs va arbob sifatida tanilgan edi. Shuning uchun ham ustozimizning xotirasini abadiylashtirish bo'yicha minglab yurtdoshlarimizdan ko'plab taklif va tavsiyalar kelib tushmoqda. Ularning barchasi ayni paytda atroflicha o'rganilmoqda va bu borada alohida qaror qabul qilinadi"<sup>20</sup>, degan edilar.

Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Birinci Prezidentimiz xotirasini abadiylashtirish, uning bebaho merosini kelajak avlodga yetkazish maqsadida Islom Karimov tomonidan barpo etilgan, uning davlat rahbari sifatidagi faoliyatining eng yorqin damlari o'tgan Oqsaroy qarorgohida Islom Karimov nomidagi ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasining tashkil etilishi mana shu so'zlarning amaliy ifodasidir, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Islom Karimov nomidagi yodgorlik majmuasida olib borilayotgan faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida muzey zallarida muntazam ravishda taqdimotlar tashkil etilib, har bir zalning funksional imkoniyatlari va texnik jihozlanish darajasi mutaxassislar ishtirokida atroflicha tahlil qilinmoqda hamda amaliy taklif va yechimlar ishlab chiqilmoqda.

Shuningdek, ilmiy-ma'rifiy yodgorlik majmuasining vazifasi nimalardan iboratligi haqida ham mazkur bo'limda atroflicha to'xtalib o'tildi.

Birinchi bobning **"Oqsaroy qarorgohini muzeylashtirish masalasi"** deb nomlangan ikkinchi bo'limida ilk bor muzeyshunoslik va san'atshunoslik nuqtai nazaridan Islom Karimov muzeyining 3 qavatdan iborat bo'lgan ekspozitsiyasi ilmiy tahlil etilgan. Oqsaroy – Islom Karimov muzeyi, Rossiyadagi B.Elsin, Ozarbayjondagi H.Aliyev, Fransiyadagi F.Mitteran markazlaridan farqli o'laroq muzey sifatida yangidan qurilmagan, balki 1999-yildan 2016-yil sentabrgacha Islom Karimov aynan shu saroyda faoliyat yuritganligi uchun ham muzeylashtirilgan.

Shuningdek, Oqsaroy binosining o'zi mustaqilligimizning ilk davrlari me'morchiligi yodgorligi hisoblanadi. Islom Karimov 17 yil davomida har kuni shu binoda faoliyat olib borgan, elchilarni qabul qilgan, xalqaro uchrashuvlar o'tkazgan, millatimiz taqdiriga molik qarorlar qabul qilgan. Oqsaroy bu O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning qarorgohidir. Qurilish ishlari 1997-yilda To'xtayev Azamat Ramzitdinovich, Shakirov Rustam Zohidovich kabi me'morlar loyihasi asosida boshlanib, 1999-yili tugatilgan. Oqsaroy loyihasi bevosita Islom Karimovning ko'rsatmalari va maslahatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilgan.

Oqsaroy muzey ekspozitsiyasini katta ilmiy tadqiqot jamlanmasi deyilishi bejiz emas. Zero, Islom Karimov muzeyi konsepsiyasi va ekspozitsiyasini tayyorlashda bir qator olimlar, jumladan, O'zbekiston Badiiy akademiyasi akademigi, san'atshunoslik fanlari doktori, professor K.Akilova, Elsin Markazidan taklif etilgan N.Deryagin, shuningdek, Rossiyaning "N-COM CENTRAL ASIA"

---

<sup>20</sup> <https://uza.uz/oz/posts/o-zbekiston-respublikasi-prezidenti-lavozimiga-kirishish-tan-14-12-2016>.

kompaniyasi mutaxassislari, R.M.Nazipov va M.S.Muxin, J.Qosimov, “Ziynat dizayn” hamda kompyuter texnologiyalari mutaxassislarning jamoaviy mehnati samarasi orqali amalga oshirildi. Shuni alohida ta’kidlash joizki, Birinchi Prezidentning rafiqasi Tatyana Karimova Akbarovna ko‘p yillar davomida ushbu majmuaning shakllanishi va muzeylashtirilishida ulkan mehnat, g‘oyalar va kuch sarfladi. Shu bois, Oqsaroy muzeyi arxividan olingan turli noyob fotolar, Birinchi Prezidentga tegishli shaxsiy buyumlar, avval hech qayerda ko‘rsatilmagan hujjatlar, video materiallar muzey ekspozitsiyasi badiiy qiymatini oshirgan.

Oqsaroy majmuasining o‘ng qanoti Islom Karimov davrida qay ko‘rinishda bo‘lgan bo‘lsa ana shunday asl holatida saqlanib qolgan. Islom Karimov hayoti, faoliyati to‘g‘risida mufassal ma’lumot berish maqsadida Oqsaroy to‘liq zamonaviy informatsion texnologiyalar bilan boyitilgan. Oqsaroy binosining chap qanoti esa qayta rekonstruksiya qilinib, muzeyga moslashtirildi. Islom Karimov muzeyi aholining keng qatlamini, yoshlarni, chet ellik mehmonlarni Birinchi Prezidentimiz rahnamoligida O‘zbekistonning mustaqil davlat sifatida shakllanishi va mustahkamlanishi tarixi bilan yaqindan tanishtirib boradi.

1-zal katta ekranida shiftga 3 ta proyektor o‘rnatilgan. Ekranda millatimizning shonli tarixi haqida 5 daqiqalik animatsion film ko‘rsatilgan. Mazkur animatsion film yosh avlod vakillarini shonli tariximizga nazar tashlashga va zamonaviy jamiyat uchun tarixiy meros qanchalik dolzarb ekanligini namoyish etadi.

2-zal “Ishonch yorliqlarini topshirish zali”. Ushbu zal hech qanday o‘zgarishlarsiz saqlanib qolgan. Faqat aynan shu jarayonlardan video lavhalarni namoyish etish uchun ekran va proyektor o‘rnatilgan.

“Uchrashuvlar zali”da Birinchi Prezident elchi bilan 10 daqiqadan to 1 soatgacha suhbat olib borgan. Zaldagi ekranda ushbu zalda bo‘lib o‘tgan uchrashuvlardan olingan videolavhalar yoritib boriladi.

“Muloqotlar zali” zalida Birinchi Prezident dunyoning yirik biznes kompaniyalar, xalqaro tashkilot rahbarlari bilan muzokaralar olib borgan, kelishuv va shartnomalar imzolagan.

“Xalqaro munosabatlar zali” axborotga, hujjat va eksponatlarga boy zallardan biri hisoblanadi. Hujjatlar va video materiallar namoyishi tomoshabinlar uchun jozibador muhitni yaratgan.

Mukofotlar zalida Islom Karimov davrida ta’sis etilgan 53 ta orden va medallar joy olgan. Zalda o‘rnatilgan gologramma Birinchi Prezidentimizni nutqlarini eshitish va ularni ko‘rish imkonini berib, tomoshabinlarni o‘sha davr muhitiga olib kiradi. O‘rnatilgan 10 ta planshetdan orden va medallar to‘g‘risida ma’lumotlarni olish mumkin.

Birinchi Prezident “Tarjimai holi” ning birinchi zali – Samarqandga, Islom Karimov oilasiga bag‘ishlangan. Zalda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning bolalik yillari, hayot yo‘li va davlat rahbari sifatidagi faoliyati bosqichma-bosqich yoritilgan bo‘lib, ushbu ekspozitsiya tomoshabinni chuqur mulohaza yuritishga undaydi.

“Mustaqil davlatchilik asoslari” deb nomlangan zalni muzey ekspozitsiya maydonining kulminatsion nuqtasi deb atash mumkin. Mazkur zalda mustaqillikning eng murakkab dastlabki yillardagi jarayonlari tarixi ko‘rsatilgan.

Zallarning biri “Ma’naviy yuksalish” deb nomlangan. Zero, Yurtning tinchligi, osoyishtaligi so‘zsiz iqtisodiyot va madaniyat rivojlanishining asosiy omilidir. Ushbu zal yosh avlod e’tiborini o‘ziga jalb qilish, Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans ta’sirini kuchaytirishga xizmat qiladi.

“Kuchli ijtimoiy siyosat” deb nomlangan zalda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yutuqlar, ilm-fan sohasidagi o‘zgarishlar, aholini ijtimoiy himoya qilish siyosati va uning asosiy yo‘nalishlari, O‘zbekistonda ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar bilan tanishish mumkin. Chunki, Birinchi Prezident ta’kidlaganidek, “Faqat sog‘lom millat, sog‘lom avlodgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi”<sup>21</sup>.

Zallardan biri “Bozor iqtisodiyoti” deb nomlangan. Mazkur zalda mustaqillikning ilk yillarida amalda bo‘lgan davlat banknoti - so‘m kuponlari, 1994-yilgacha amalda bo‘lgan qog‘oz pullar va 1994-yildan keyin muomalaga kiritilgan milliy valyutamizning namunalari – qog‘oz pullar, tangalar ekspozitsiyaga joylashtirilgan.

“Mukofotlar zali”da Islom Karimovga xalqaro maydondagi nufuzini ifodalovchi, turli davlat rahbarlari va jahon sport tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan orden va medallar ham jamlangan. Ushbu zal ekspozitsiyaning mantiqiy davomidir. Zalda klassik musiqaning yangrashi tomoshabinlarga yangi ma’lumotlarni yengil qabul qilishiga imkon yaratgan. Tomoshabin mazkur zal orqali insonning shaxs sifatida shakllanishi, siyosiy yetuklikka erishishi va tarixiy shaxs darajasiga ko‘tarilishida oilaning o‘rni benihoya ekanligini anglab yetadi.

“Yodi hamisha yodda” deb nomlangan zalda, mustaqillik asoschisi, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovni so‘nggi manzilga kuzatishga oid foto va video lavhalar bilan tanishish mumkin. Ehtimol, muzeyning mazkur qismi har bir tomoshabinni Birinchi Prezident I.Karimovni Vatan taraqqiyoti uchun qilgan faoliyatiga yana bir bor minnatdorchilik bildirib, ular bilan xayrlashuvga chorlaydi.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1999-yildan 2016-yilga qadar ya’ni 17 yil davomida faoliyat olib borgan ish kabineti va qabulxonasi muzey konsepsiyasi xulosasi va muzeyning eng diqqatga sazovor joyi hisoblanadi. Chunki, Birinchi Prezident aynan shu yerdan turib Respublikani boshqargan va dunyo bilan muloqotda bo‘lgan.

Tadqiqotning **“Islom Karimov siymosining tasviriy san’at asarlaridagi talqini”** deb nomlangan ikkinchi bobi ikki bo‘limdan iborat. Unda Islom Karimov siymosining tasviriy san’at asarlaridagi talqini san’atshunoslik nuqtai nazaridan badiiy tahlil etilgan. Ma’lumki, haykaltaroshlik san’atning juda qadimgi turlaridan biri hisoblanib, bugungi kunda ham ushbu san’atga nisbatan bo‘lgan qiziqish so‘ngani yo‘q. Aksincha, u turli yo‘sin va usullarda yangi ma’no va mazmun kasb etib bormoqda. Shundan kelib chiqib aytganda, haykaltaroshlik san’ati orqali

---

<sup>21</sup> Karimov I. Yoshlarimiz – xalqimizning ishonchi va tayanchi. – T.: «Ma’naviyat», 2006. – B. 6.

xotirani abadiylashtirish, g'oya yoki mafkurani targ'ib qilishda ushbu janrning ta'sirchanligini ko'rish mumkin.

Mazkur bobning **“Butun olamni jo etgan yurak” ekspozitsiyasining tahlili** deb nomlangan birinchi bo'limida Islom Karimovning mustaqil davlat rahbari sifatida faoliyati aks etgan san'at asarlari, jumladan, rangtasvir, haykaltaroshlik asarlari fotolarlari ilmiy tahlil etilgan. Tasviriy san'at insoniyat tafakkuri, estetik dunyoqarashi va madaniy taraqqiyotining eng muhim vositalaridan biri bo'lib, u orqali tarixiy va zamonaviy jarayonlar badiiy obrazlar tizimida ifodalanadi. San'atshunoslik nuqtai nazaridan qaralganda, bu yo'nalish inson shaxsiyatini tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etishda beqiyos ahamiyatga ega.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Islom Karimov kamtar tabiati tufayli o'z rasmini natura holatida chizdirmagan. Ammo o'z kasbini mahoratli ustalari – Farxod Qurbonboyev, Rustam Sharipov va Maksim Penson tomonidan olingan suratlar Islom Karimov siymosining badiiy portretlarini yaratishda muhim vizual manba va kompozitsion asos sifatida xizmat qildi. Bu suratlar nafaqat tarixiy hujjat sifatida, balki obrazning estetik talqiniga yo'naltirilgan badiiy yondashuvning muhim elementi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Qat'iyatli rahbar, teran tafakkur egasi bo'lgan Islom Karimovning o'ychan va donishmandlik ifodalangan siymosi O'zbekiston hamda xorijiy rassomlar va haykaltaroshlar ijodida badiiy yondashuv bilan talqin etilgan. Ayniqsa, yetakchi O'zbekistonlik san'atkorlar tomonidan yaratilgan tasviriy va haykaltaroshlik asarlarida uning ichki ruhiy olami, shaxsiy qiyofasi hamda ma'naviy dunyosi san'at tili orqali yuksak estetik darajada namoyon etilgan.

Masalan, 1998-yilda O'zbekiston Xalq rassomi, akademik Sobir Rahmetov tomonidan yaratilgan “Talabalik yillaridan esdalik” nomli asarida Birinchi Prezidentning talabalik yillari siymosi aks etgan portreti diqqatga sazovordir. Ushbu asar haqida rassomning o'zi shunday deydi: - “Portret yaratishda rassom oldida turgan eng asosiy vazifa bu – tabiatning eng mukammal bo'lagi hisoblanmish – insonning ma'naviy dunyosini ochib berish zarur, aynan mana shu “dunyo” uning ijtimoiy hayotdagi o'rnini ko'rsatib beradi”<sup>22</sup>. Mazkur asar I.Karimovning 60 yillik tavallud ayyomiga atab kursdoshlaridan biri tomonidan sovg'a qilingan. Asarda Birinchi Prezidentning institutda tahsil olgan kezlari tasvirlangan bo'lib, asar tomoshabinga irodali, o'z maqsadi tomon intiluvchan, murakkab global muammolarni hal eta oluvchi yigit qiyofasi orqali namoyon bo'ladi. Yosh Islom Karimov timsolida kuchli, jasur va uzoqni ko'ra biladigan siyosatchi, mustaqil O'zbekistonning asoschisini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Xalq rassomi, akademik Bahodir Jalolov tomonidan 2014-yilda yaratilgan “Buyuk yo'l” nomli asarlar turkumi Islom Abdug'aniyevich Karimovning hayoti va faoliyatini hurmat bilan tasvirlashga bag'ishlangan ulkan badiiy asarlar majmuasidir. Turkumda jamlangan beshta rangtasvir asarlarida Birinchi Prezidentning nafaqat shaxsiyati va siyosiy faoliyati, balki mustaqil O'zbekiston davlatining shakllanishi jarayonlari ham ko'rsatilgan.

---

<sup>22</sup> S.Raxmetov bilan suhbatdan (Intervyu olingan sanasi: 12.01.2018)

Bahodir Jalolovning “Buyuk yo‘l” turkumi tarixiy shaxsning badiiy portretini yaratishga urinish bilan bir qatorda o‘z xalqining taqdiri va uning kelajagi uchun mas’uliyatli rahbarning insoniy fazilatlarini namoyon etuvchi mukammal ijod namunasidir. Asarlar turkumida jasorat, sadoqat va xalqning kelajagi uchun xizmat qilishdek muqaddas tushunchalarni e’tirof etish alohida o‘rin tutadi.

Asarni tahlil etar ekanmiz, **birinchidan**, bu yerda biz ijodkorning professionalligini e’tirof etishimiz joiz. **Ikkinchidan**, rassom “qahramon”ning qo‘l harakati, o‘tkir nigoh, nimtabassumni asarda mohirlik ila aks ettira olgan. **Uchinchidan**, san’atshunoslik nazariyasiga ko‘ra, bu vazifa juda qiyin, ayniqsa, shaxsning ichki dunyosini ko‘rsata olish, siymoning har bir chizig‘ida o‘ziga xos falsafani ochib berish juda murakkab, lekin, rassomning ulkan iste’dodi ushbu asarda yanada yaqqol ko‘zga tashlanadi. **To‘rtinchidan**, “Qahramon” deb nomlangan asarda bir qarashda oddiy inson qiyofasi gavdalanadi. Lekin, “qahramon”ning teran nigohi, yuzidagi mimika, o‘ychan qiyofa, qadam tashlashi singari detallar rassomning yuksak mahorat bilan shaxs irodasi, kuchini ko‘rsatib bergani namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi bobning “**Islom Karimov siymosining fotolardagi ifodasi**” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida “Butun olamni jo qilgan yurak” deb nomlangan ko‘rgazmaning kichik zalidan o‘rin olgan oq-qora rangdagi fotosuratlarda tarixiy voqealar o‘zgacha haqqoniy tarzda aks etib turishi o‘z-o‘zidan ayon. Asarlarda o‘tgan kunlarning ruhi saqlanib qolgandek go‘yo. Har bir surat mulohazaga chorlaydi – voqea qayerda va qachon sodir bo‘lgan, davomi qanday bo‘lganu, nima bilan yakun topgani barchaga birdek qiziq.

Kichik zalning ekspozitsiyasi oilaviy arxivdagi fotosuratlar bilan boshlanadi. Fotosuratlarining noyobligini muallifning yondoshuvi, tanlangan rakurslarda kuzatish mumkin. Ya’ni, uchrashuv va suhbat ishtirokchilari rasmiyatchilikdan holi, erkin va samimiy holatda, kameraning ziyrak “nigohi”ni sezmayotgandek tasavvur uyg‘otadi.

Fotosuratlar nihoyatda haqqoniy ishlangan bo‘lib, Birinchi Prezidentning olmosdek o‘tkir nigohi, yuzida aks etgan ichki kechinmalari, uning serqirra, keng dunyoqarashi, uzoqni ko‘ra bilish qobiliyatiga ega shaxs bo‘lganidan dalolat beradi. Bir so‘z bilan aytganda, suratlarda Islom Karimovning rang-barang bo‘yoqlardan, sun’iylikdan xoli siymosini ko‘rishingiz mumkin. Darhaqiqat, Islom Karimovning tasviriy san’at asarlari va fotolardagi siymosida ham oddiy “**bir dona urug‘dan ulkan daraxt yuksalganini ko‘ramiz**”. Zero, istiqlol yillarida mamlakatimiz erishgan ulkan yutuq va marralar Birinchi Prezident nomi va faoliyati bilan bog‘liq. Islom Karimov O‘zbekistonni jahonda o‘z o‘rni va so‘ziga ega davlatga aylantirdi. Mustaqillikni mustahkamlash, davlatimiz taraqqiyoti yo‘lida yuksak fidoyilik ko‘rsatib mehnat qilgani xalqimiz uchun ibrat namunasi bo‘lib qoldi. Shuning uchun Islom Karimovning siymosini yaratishga bo‘lgan qiziqish musavvirlar orasida katta mas’uliyat talab qiladigan ishdir. Ushbu omil bugungi kunda jahon miqyosida buyuk ajdodlarimizning so‘nmas dahosiga ehtirom ko‘rsatilib, ularning boy ilmiy merosini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortib borayotganligida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Buyuk shaxslarning baddiyatdagi siymosini ham buyuk shaxslar yaratadi. Yuqorida nomi va asarlari keltirilgan ijodkorlarning fidoiyligi shundaki, yurt uchun, millat uchun jon fido qilgan zotning siymosini o'z asarlarida abadiyatga muhrlashgan.

**“O‘zbekiston madaniy hayoti rivojida Islom Karimovning islohotlari”** deb nomlangan uchinchi bob ikki bo‘limdan iborat. Mazkur bobda mustaqil O‘zbekistonning madaniyat rivojida Islom Karimov amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, ularning san’atshunoslik sohasiga ko‘rsatgan ijobiy ta’siri tahlil etilgan.

